XALQ DEPUTATLARI BO'KA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 20-dekabr VII-3-012-10-137-K/24 Bo'ka tumani

Tumandagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonuni (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-yil, 41-son, 448-modda) va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 295-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi direktorining o'rinbosari, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o'tkazish ekspert komissiyasi raisi T.M.Abdullayevning 2024-yil 6-yanvardagi 1119-01-sonli yig'ilish bayonnomasi va ekspert xulosasiga asoslanib, xalq deputatlari Bo'ka tumani Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi L.Akbarovaning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Tumanda geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalari bo'yicha komissiyaning Ibrat mahallasidagi mavjud jami 32 (o'ttiz ikki) ta geografik obyektlarni (ko'cha, tor ko'cha va berk ko'cha) nomlash bo'yicha takliflari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Tuman hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi L.Akbarova mazkur geografik obyektlarni Davlat reyestriga kiritish choralarini ko'rsin.
4. Mazkur qaror ijrosi tuman hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi L.Akbarovaga, qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining "Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo'yicha" doimiy komissiyasi raisi T.Mirzayeva zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



BEGMATOV
BAXTIYOR
PAXRIDDINOVICH

Xalq deputatlari Bo‘ka tumani
Kengashining
2024-yil 20-dekabrdagi
VII-3-012-10-137-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Bo‘ka tumani Ibrat mahallasidagi nomsiz ko‘chalarga nom berish bo‘yicha takliflar

№	“Ibrat” MFYdagi mavjud ko‘chalarning amaldagi nomlari	2024-yil 6-yanvardagi №1119-01-sonli yig‘ilish bayonnomasi va ekspert xulosasiga asosan berilgan nom.
1	Nomsiz	Ittifoq
2	Nomsiz	Shirinsuv
3	Nomsiz	Sadaf
4	Nomsiz	Sadaf tor
5	Nomsiz	Sadaf berk
6	Nomsiz	Jasorat
7	Nomsiz	Jasorat tor
8	Nomsiz	Yangizamon
9	Nomsiz	Yangizamon tor
10	Nomsiz	Yangizamon berk
11	Nomsiz	Shukrona
12	Nomsiz	Shukrona berk
13	Nomsiz	Shukrona 1-tor
14	Nomsiz	Shukrona 2-tor
15	Nomsiz	Shukrona 3-tor
16	Nomsiz	Fidokor
17	Nomsiz	Fidokor 1-berk
18	Nomsiz	Fidokor 2-berk
19	Nomsiz	Ziyonur
20	Nomsiz	Ziyonur 1-berk
21	Nomsiz	Ziyonur 2-berk
22	Nomsiz	Ziyonur tor
23	Nomsiz	Nastarin
24	Nomsiz	Nastarin tor
25	Nomsiz	Shodiyona
26	Nomsiz	Nurli kelajak
27	Nomsiz	Nurli kelajak 1-tor
28	Nomsiz	Nurli kelajak 2-tor
29	Nomsiz	Dilxush
30	Nomsiz	Sug‘diyona
31	Nomsiz	Chinor
32	Nomsiz	Gulobod